



THE GENESIS, HISTORICAL DEVELOPMENT, AND GENRE CHARACTERISTICS OF THE SHORT STORY

Aslbek Ergashev

PhD, Senior Lecturer, Department of Russian Literary Studies
Chirchik State Pedagogical University
Chirchik, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: novella, novella genre, genesis, poetics, epic genre, artistic chronotope, plot, composition, character system, psychologism, linguopoetics, comparative literature, Uzbek literature, Russian literature.

Received: 27.07.26

Accepted: 28.07.26

Published: 29.07.26

Abstract: This article examines the genesis, historical development, and poetic characteristics of the novella as an epic literary genre. It explores the role of oral folk traditions, religious and educational sources, classical Eastern literature, and the world literary process in the formation and evolution of the genre. Particular attention is paid to the genre's artistic nature, chronotope, plot and compositional structure, system of characters, psychological representation, and linguopoetic features from the perspective of contemporary literary studies. Using a comparative-typological approach, the study identifies the common and distinctive poetic features of Uzbek and Russian novellas, revealing their artistic similarities as well as their national and cultural specificity.

QISSA JANRINING GENEZISI, TARIXIY TARAQQIYOTI VA JANRIY XUSUSIYATLARI

Aslbek Ergashev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Rus adabiyotshunosligi kafedrası PhD, katta o'qituvchisi
Chirchiq, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qissa, qissa janri, genezis, poetika, epik janr, qissachilik, badiiy xronotop, syujet, kompozitsiya, obraz, psixologizm, lingvopoetika, qiyosiy adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti, rus adabiyoti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qissa janrining genezisi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda poetik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Qissa janrining shakllanishida xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'rifiy manbalar, Sharq mumtoz adabiyoti va

jahon adabiy jarayonining o'zni yoritilgan. Shuningdek, qissaning janriy tabiati, badiiy xronotopi, syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, psixologik tasvir va lingvopoetik xususiyatlari zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida tadqiq etilgan. O'zbek va rus qissachiligining qiyosiy-tipologik jihatlari tahlil qilinib, ularning poetik mushtarakligi va milliy o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslangan.

ГЕНЕЗИС, ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАССКАЗА

Аслбек Эргашев

PhD, старший преподаватель кафедры русского литературоведения

Чирчикский государственный педагогический университет

Чирчик, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: повесть, жанр повести, генезис, поэтика, эпический жанр, художественный хронотоп, сюжет, композиция, система образов, психологизм, лингвопоэтика, сравнительное литературоведение, узбекская литература, русская литература.	Аннотация: В статье рассматриваются генезис, основные этапы исторического развития и поэтические особенности жанра повести. Проанализирована роль устного народного творчества, религиозно-просветительских источников, классической восточной литературы и мирового литературного процесса в формировании данного жанра. Особое внимание уделено жанровой природе повести, художественному хронотопу, сюжетно-композиционной организации, системе образов, психологизму и лингвопоэтическим особенностям произведений. На основе сравнительно-типологического подхода исследованы общие и национально-специфические черты узбекской и русской повести, определены их поэтические особенности и закономерности художественного развития.
---	---

Adabiy janrlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, estetik tafakkuri hamda ijtimoiy-madaniy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab badiiy jarayondir. Har bir janr uzoq evolyutsion bosqichlarni bosib o'tishi natijasida mustaqil poetik tizim sifatida shakllanadi. Shu jihatdan qissa janri ham insoniyat badiiy tafakkurining ko'p asrlik tajribasi, og'zaki ijod an'analari, diniy-ma'rifiy qarashlar va yozma adabiyot taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda vujudga kelgan janrlardan biri hisoblanadi. Mazkur janrning bugungi badiiy-estetik

qiyofasi uning tarixiy ildizlari, janriy transformatsiyasi va turli adabiy an'analar ta'sirida shakllangan poetik qonuniyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Janr nazariyasiga oid ilmiy qarashlarda qissa alohida epik shakl sifatida e'tirof etiladi. Uning o'ziga xosligi, avvalo, voqealar ko'lamining roman darajasiga yetib bormasligi, biroq hikoyaga nisbatan kengroq hayotiy materialni qamrab olishi bilan belgilanadi. Biroq bunday ta'rif qissaning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Chunki qissa faqat hajm mezoni bilan emas, balki badiiy vaqt va makonning tashkil etilishi, syujetning ichki dinamikasi, qahramon ruhiy olamining tasvirlanish darajasi, kompozitsion yaxlitlik hamda muallif konsepsiyasining ifodalanish usullari orqali ham tavsiflanadi. Shuning uchun zamonaviy adabiyotshunoslikda janrni faqat formal belgilarga tayangan holda emas, balki poetik tizim sifatida tadqiq etish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Qissa janrining genezisini o'rganishda, eng avvalo, uning folklor bilan uzviy aloqalariga e'tibor qaratish zarur. Chunki insoniyatning dastlabki badiiy tafakkuri og'zaki ijod mahsullari orqali namoyon bo'lgan. Miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar va tarixiy hikoyatlar keyinchalik yozma adabiyot rivojlanishining mustahkam poydevoriga aylangan. Ayniqsa, qissago'ylik an'anasi Sharq xalqlari madaniyatida o'ziga xos estetik hodisa sifatida shakllanib, xalqning tarixiy xotirasi, diniy tasavvurlari, axloqiy qadriyatlari va estetik ideallarini avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodida ham qissachilikning dastlabki ko'rinishlari juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Baxshilar tomonidan ijro etilgan qahramonlik dostonlari, tarixiy rivoyatlar, diniy va ma'rifiy hikoyatlar voqealarni izchil bayon qilish, obrazlarni individuallashtirish hamda tinglovchi ongiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatish xususiyatlari bilan keyingi yozma qissalar poetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Binobarin, qissa janrining shakllanishini faqat yozma adabiyot mahsuli sifatida emas, balki og'zaki va yozma madaniyatning ko'p asrlik sintezi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllangan ma'naviy-madaniy muhit ham qissa janrining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Islomgacha bo'lgan davrda zardushtiylik mafkurasi va uning asosiy manbasi bo'lgan "Avesto" ezgulik hamda yovuzlik o'rtasidagi kurashni markaziy g'oya sifatida ilgari surdi. Mazkur dualistik qarashlar keyinchalik Sharq adabiyotidagi ko'plab syujet va obrazlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Qahramonning sinovlardan o'tishi, ezgulik yo'lida kurashishi, ma'naviy komillikka erishishi kabi motivlar keyingi qissalar poetikasida ham yetakchi o'rin egalladi. Demak, qissa janrining tarixiy ildizlarini tadqiq etishda diniy-falsafiy manbalar bilan badiiy tafakkur o'rtasidagi genetik bog'liqlikni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Islom sivilizatsiyasining keng yoyilishi qissachilik taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Qur'oni karimda keltirilgan payg'ambarlar qissalari nafaqat diniy-ta'limiy ahamiyatga, balki yuksak badiiy-estetik qimmatga ham ega bo'ldi. Qur'ondagi qissalar voqealarni oddiy tarixiy bayon etish bilan cheklanmaydi; ular inson ruhiyati, axloqiy tanlov, e'tiqod, sabr-toqat, adolat va ilohiy haqiqatni chuqur falsafiy mazmunda ifodalaydi. Shu bois Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan ko'plab qissalar ana shu ilohiy badiiy model asosida rivojlandi. Yusuf va Zulayho, Muso, Iso, Sulaymon, Ayyub singari payg'ambarlar haqidagi syujetlar fors-tojik hamda turkiy adabiyotda yangi poetik talqinlarga ega bo'ldi. Bu esa qissa janrining diniy, tarixiy va badiiy qatlamlarini o'zaro uyg'unlashtirgan murakkab janr sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Sharq mumtoz adabiyotida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida qissachilik tamoyillari yanada mukammallashti. Ayniqsa, Alisher Navoiyning "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" singari asarlari biografik qissaning dastlabki mukammal namunalaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu asarlarda tarixiy shaxs hayoti oddiy faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki muallifning estetik konsepsiyasi asosida badiiy qayta ishlanadi. Qahramonning ruhiy olami, axloqiy fazilatlar va ma'naviy komilligi markaziy badiiy obyektga aylanadi. Aynan shu jihat keyingi davrlarda yaratilgan qissalar poetikasining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi.

XX asr boshlariga kelib qissa janri yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit ta'sirida mazmunan va shaklan sezilarli darajada yangilandi. Matbuot taraqqiyoti, tarjima adabiyotining rivojlanishi, rus va G'arb adabiyotlari bilan madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida qissalarda psixologik tasvir, ichki monolog, muallif nutqining individuallasuvi, kompozitsion erkinlik va zamonaviy badiiy tafakkur elementlari kuchaydi. Natijada qissa janri voqeaband asardan inson ruhiyatini chuqur tadqiq etuvchi murakkab epik shaklga aylana boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy o'zgarishlar qissa janrining poetik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Jadidchilik harakati ta'sirida adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qayta baholandi, badiiy ijodning asosiy vazifasi insonni ma'naviy uyg'otish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirish bilan bog'landi. Natijada qissa janri ham didaktik yo'nalishdan asta-sekin psixologik, falsafiy va ijtimoiy-estetik yo'nalishga o'ta boshladi. Endilikda qissa muallifning voqelikka munosabatini ifodalovchi, inson ruhiy olamini chuqur tahlil qiluvchi hamda jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni badiiy umumlashtiruvchi epik shaklga aylandi.

Janr nazariyasiga oid zamonaviy qarashlarda qissaning badiiy tabiati, avvalo, uning xronotop tizimi orqali belgilanadi. M.M. Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan xronotop nazariyasi epik janrlarning ichki tuzilishini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, badiiy vaqt va makon asarda shunchaki voqealar sodir bo'ladigan

fon emas, balki syujetning harakatlantiruvchi kuchi, obrazlar xarakterini shakllantiruvchi estetik omil hisoblanadi. Qissalarda xronotop ko‘pincha qahramonning hayot yo‘li, ma’naviy kamoloti va ruhiy izlanishlari bilan uzviy bog‘lanadi. Shu bois qissa poetikasini tadqiq etishda voqealar ketma-ketligini emas, balki badiiy vaqtning zichlashuvi, makonning ramziy ma’nolari va ularning qahramon taqdiri bilan o‘zaro munosabatini tahlil qilish ilmiy jihatdan muhimdir.

Qissaning janriy tabiati uning syujet-kompozitsion qurilishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Hikoyadan farqli ravishda qissada voqealar tizimi murakkabroq bo‘lib, qahramon xarakterining evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ochib boriladi. Biroq roman bilan qiyoslaganda qissada syujet tarmoqlari son jihatidan kamroq, konflikt esa, asosan, markaziy qahramonning ichki kechinmalari yoki muayyan hayotiy vaziyat bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Aynan mana shu xususiyat qissani inson ruhiy olamini chuqur tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan ixcham epik janr sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Qissa poetikasida obraz yaratish tamoyillari ham o‘ziga xos badiiy qonuniyatlarga asoslanadi. Mazkur janrda bosh qahramon odatda murakkab hayotiy sinovlar orqali shakllanadigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning ruhiy iztiroblari, axloqiy tanlovi, ichki qarama-qarshiliklari va ma’naviy kamolot jarayoni syujetning asosiy harakatlantiruvchi omiliga aylanadi. Shu sababli qissalarda tashqi voqealardan ko‘ra ichki drammatizm ustuvorlik kasb etadi. Psixologik tahlil, ichki monolog, ong oqimi elementlari, ramziy detallar va badiiy tafsilotlar qahramon xarakterini ochishda muhim poetik vositalar vazifasini bajaradi.

O‘zbek qissachiligida mazkur tamoyillar, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida yangi bosqichga ko‘tarildi. Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Erkin A‘zam, Tog‘ay Murod va Xurshid Do‘stmuhammad singari adiblar qissa janrining poetik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdilar. Ular yaratgan asarlarda shaxs va jamiyat munosabatlari, insonning ichki olami, milliy tafakkur, tarixiy xotira hamda ma’naviy qadriyatlar yangi badiiy yechimlarda aks ettirildi. Ayniqsa, psixologik tasvirning kuchayishi, falsafiy mushohadaning chuqurlashuvi va ramziy ifoda vositalarining keng qo‘llanishi qissaning zamonaviy poetikasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi.

Rus adabiyotida ham qissa janri o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. XIX asr rus realizmi mazkur janrning badiiy imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. A.S. Pushkin, N.V. Gogol, I.S. Turgenev, L.N. Tolstoy, F.M. Dostoyevskiy, A.P. Chexov singari ijodkorlarning qissalari nafaqat rus, balki jahon adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu asarlarda inson ruhiyati, axloqiy tanlov, ijtimoiy ziddiyat va falsafiy tafakkur yuksak badiiy mahorat bilan uyg‘unlashgan. Ayniqsa, Lev Tolstoy qissalarida axloqiy komillik, vijdon, e’tiqod va insonning ichki erkinligi masalalari markaziy poetik konsepsiyani tashkil etadi.

O'zbek va rus qissachiligini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish mazkur janrning universal hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikki adabiyotda qissa shaxs taqdirini badiiy tadqiq etuvchi epik shakl sifatida rivojlangan bo'lsa-da, ularning poetik tabiatida milliy dunyoqarash, madaniy an'ana, tarixiy xotira va estetik tafakkur bilan bog'liq farqlar ham kuzatiladi. O'zbek qissalarida xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'rifiy tafakkur va milliy qadriyatlar yetakchi o'rin egallasa, rus qissalarida individual psixologizm, falsafiy refleksiya va ekzistensial muammolar nisbatan chuqurroq yoritiladi. Shu bilan birga, inson shaxsini anglash, axloqiy tanlov, ezgulik va yovuzlik kurashi, hayot mazmunini izlash kabi umuminsoniy masalalar ikki adabiyot qissalarining tipologik mushtarakligini ta'minlaydi.

Zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaranganda, qissa janrining taraqqiyoti adabiy aloqalar va madaniyatlararo ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq. Hech bir milliy adabiyot mutlaq izolyatsiyada rivojlanmaganidek, qissachilik ham Sharq va G'arb adabiy tajribalarining o'zaro ta'siri natijasida yangi poetik sifat kasb etgan. Tarjima adabiyoti, ijodiy o'zlashtirish va tipologik yaqinliklar natijasida janrning kompozitsion qurilishi, badiiy tili, obrazlar tizimi hamda estetik konsepsiyasi muntazam takomillashib borgan. Shu sababli qissa genezisini faqat bitta milliy adabiyot doirasida emas, balki jahon adabiy jarayoni kontekstida tadqiq etish ilmiy jihatdan eng samarali metodologik yondashuv hisoblanadi.

Qissa janrining poetik tabiatini belgilovchi muhim mezonlardan biri badiiy til va uslub masalasidir. Har qanday epik asarning estetik qiymati, avvalo, unda qo'llangan til birliklarining badiiy vazifasi, obraz yaratish imkoniyatlari hamda muallif individual uslubining namoyon bo'lish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaranganda, qissa janri nafaqat voqealarni bayon etish vositasi, balki tilning estetik imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etuvchi badiiy makon sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tilning kommunikativ vazifasi qissada estetik vazifa bilan uyg'unlashib, so'zning denotativ ma'nosi bilan bir qatorda uning konnotativ, ekspressiv va assotsiativ qatlamlarini ham faollashtiradi. Natijada badiiy matnda qo'llangan har bir leksik birlik muallif konsepsiyasini ifodalovchi poetik unsurga aylanadi.

Lingvopoetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qissa matnining badiiy ta'sirchanligi ko'p jihatdan metafora, metonimiya, sinekdoxa, ramz, allegoriya, epitet, o'xshatish, takror, gradatsiya kabi tasvir vositalarining funksional faolligiga bog'liq. Mazkur vositalar qahramon ruhiy holatini ifodalash, badiiy makon va zamonni individuallashtirish, muallif bahosini yashirin tarzda ifodalash hamda asarning umumiy poetik konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy qissalarda ramziy obrazlar tizimi keng qo'llanilib, ular muayyan voqelikni emas, balki falsafiy mazmunni ifodalash vositasiga aylanmoqda. Bunday poetik hodisa XX asr modern va postmodern adabiyotida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Qissa poetikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri muallif nutqi va personaj nutqi o'rtasidagi munosabatdir. Klassik qissalarda muallif ovozi ustuvor bo'lsa, zamonaviy qissalarda dialogik tafakkur tamoyili kuchayib, qahramonning ichki ovozi mustaqil estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. M.M. Baxtinning dialogizm konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, badiiy matnda turli nutq subyektlarining mavjudligi asarning semantik ko'lamini kengaytiradi. Natijada muallifning mutlaq hukmronligi o'rnini turli dunyoqarashlarning estetik muloqoti egallaydi. Ayniqsa, ichki monolog, ong oqimi, erkin bilvosita nutq kabi usullarning qo'llanilishi qahramon psixologiyasini tabiiy va ishonarli tasvirlash imkonini beradi.

Qissa janrida portret, peyzaj va interyer tasvirlari ham syujetning oddiy bezagi emas, balki semantik yuk ko'taruvchi poetik komponentlar hisoblanadi. Portret qahramonning tashqi qiyofasini emas, uning ruhiy olami va xarakterini ochishga xizmat qiladi. Peyzaj esa tabiat manzarasini tasvirlash bilan cheklanmay, voqealar rivoji, konflikt dinamikasi hamda personajning psixologik holatini ifodalovchi ramziy makonga aylanadi. Interyer tasvirlari esa qahramon yashayotgan ijtimoiy muhit, estetik did va ma'naviy olamni aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois zamonaviy poetik tahlilda mazkur komponentlar syujetdan ajralgan mustaqil element sifatida emas, balki yaxlit badiiy tizimning uzviy bo'lagi sifatida talqin qilinadi.

O'zbek qissachiligida Shukur Xolmirzayev ijodi mazkur poetik tamoyillarning yorqin namunasidir. Adib qissalarida voqelikning tashqi tasviridan ko'ra inson qalbidagi ichki ziddiyatlarni ochishga ustuvor ahamiyat beriladi. Tabiat manzaralari qahramon ruhiyati bilan uyg'un holda tasvirlanadi, milliy tafakkur va falsafiy mushohada badiiy detal orqali ifodalanadi. Xususan, yozuvchining "Qora kamar", "Olabo'ji", "To'lqinlar", "Tanholik" kabi asarlarida badiiy detal syujetning yordamchi unsuri emas, balki poetik mazmunni shakllantiruvchi asosiy estetik vositaga aylanadi. Ayniqsa, Lev Tolstoy shaxsiyati va ijodiga bag'ishlangan "Tanholik" qissasida adabiy ta'sir, ijodiy dialog va madaniyatlararo mushtaraklik masalalari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

Rus qissachiligida esa Lev Tolstoy, Ivan Turgenev va Anton Chexov ijodida psixologik realizmning yuksak namunalari yaratilgan. Tolstoyning "Kazaklar", "Iblis", "Ivan Ilichning o'limi", Chexovning "Dasht", Turgenevning "Asya", "Birinchi muhabbat" kabi qissalari janrning badiiy imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu asarlarda voqea rivojidan ko'ra inson ongida kechayotgan ruhiy jarayonlarning tasviriga alohida e'tibor qaratiladi. Bu holat keyinchalik o'zbek qissachiligida ham ijodiy o'zlashtirilib, milliy badiiy tafakkur asosida yangi poetik shakllarni yuzaga keltirdi.

Qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan olib qaralganda, o'zbek va rus qissalarida badiiy tilning estetik funksiyalari ko'plab mushtarak jihatlariga ega. Har ikki adabiyotda metaforik tafakkur, ramziy ifoda, psixologik tasvir va falsafiy umumlashtirish qissa poetikasining asosiy

komponentlarini tashkil etadi. Biroq milliy mentalitet, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarning farqlanishi natijasida mazkur vositalarning badiiy funksiyasi ham turlicha namoyon bo'ladi. O'zbek qissalarida xalqona iboralar, maqollar, diniy-falsafiy timsollar va milliy obrazlar faol qo'llanilsa, rus qissalarida individual psixologizm, ichki refleksiya va falsafiy dialog yetakchi poetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shu umumiylik va o'ziga xosliklar qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyekti tashkil etadi.

Janr evolyutsiyasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, qissa bugungi kunda ham o'z poetik imkoniyatlarini boyitishda davom etmoqda. Globallashuv, madaniyatlararo integratsiya, yangi estetik qarashlarning shakllanishi natijasida qissa janri an'anaviy realizm doirasidan chiqib, modernistik, postmodernistik va neorealistik badiiy izlanishlarni ham o'zlashtirmoqda. Shunga qaramay, uning asosiy estetik mohiyati — inson shaxsini badiiy tadqiq etish, uning ruhiy olami va ma'naviy qiyofasini ochish vazifasi o'zgarishsiz qolmoqda. Ana shu jihat qissani epik janrlar tizimida doimo dolzarb va hayotiy janr sifatida saqlab kelayotgan eng muhim poetik qonuniyatlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, qissa janri jahon va milliy adabiyot taraqqiyoti davomida uzoq tarixiy evolyutsiya bosqichlarini bosib o'tgan, o'ziga xos poetik qonuniyatlarga ega epik janrlardan biridir. Uning shakllanishi xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'rifiy manbalar, mumtoz Sharq adabiyoti hamda jahon adabiy tajribalarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Qissachilik an'analari dastlab mifologik, folklor va diniy rivoyatlar negizida shakllangan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyot taraqqiyoti jarayonida mustaqil badiiy-estetik tizim sifatida rivojlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qissa janrining poetik tabiatini belgilovchi asosiy mezonlar badiiy xronotop, syujet-kompozitsiya, obrazlar tizimi, psixologik tasvir, muallif konsepsiyasi hamda badiiy til va uslubning o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. Mazkur komponentlarning yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi qissaning estetik qimmatini belgilaydi. Shu jihatdan qissa hajm mezonlari bilan emas, balki badiiy tafakkurning ifodalanish usuli, inson ruhiyatini yoritish imkoniyatlari hamda voqelikni estetik umumlashtirish darajasi bilan tavsiflanadigan murakkab epik janr hisoblanadi.

O'zbek va rus qissachiligi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinganda, ularning taraqqiyotida ko'plab mushtarak poetik tamoyillar mavjudligi kuzatiladi. Har ikkala adabiyotda ham inson shaxsi, uning ma'naviy olami, axloqiy tanlovi, ruhiy kechinmalari hamda jamiyat bilan munosabatlari qissa janrining markaziy badiiy obyekti tashkil etadi. Biroq milliy mentalitet, tarixiy taraqqiyot, madaniy qadriyatlar va estetik an'analarning o'ziga xosligi natijasida ushbu poetik tamoyillar turlicha badiiy yechimlarda namoyon bo'ladi. O'zbek qissalarida milliy qadriyatlar, xalqona tafakkur va ma'naviy-axloqiy g'oyalar yetakchilik qilsa, rus qissalarida psixologik realizm, falsafiy mushohada va individual ong tahlili ustuvorlik kasb etadi.

Shuningdek, qissa janrining rivojlanishida adabiy aloqalar va madaniyatlararo ta'sirlarning muhim o'rin tutishi aniqlandi. Tarjima adabiyoti, ijodiy o'zlashtirish va tipologik yaqinliklar natijasida qissaning poetik imkoniyatlari tobora kengayib, yangi badiiy shakllar va estetik tamoyillar bilan boyib borgan. Shu bois qissachilik taraqqiyotini faqat milliy adabiyot doirasida emas, balki jahon adabiy jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qissa janri zamonaviy adabiy jarayon sharoitida ham o'z badiiy-estetik salohiyatini saqlab qolmoqda. Inson ruhiyati, tarixiy xotira, milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni badiiy talqin etishdagi keng imkoniyatlari mazkur janrning istiqboldagi rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Binobarin, qissa poetikasini lingvopoetik, qiyosiy-tipologik, narratologik va xronotopik yondashuvlar asosida tadqiq etish nafaqat janr nazariyasini boyitadi, balki o'zbek va jahon adabiyoti o'rtasidagi badiiy aloqalar hamda milliy badiiy tafakkur taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu ma'noda qissa janri zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асқад Мухтор. Ёзувчининг ҳаётий позицияси. –Т: “Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 1981. –Б.18.
2. Давронова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида шарқ ва ғарб анъаналарининг бадий синтези. Филол.фан.док.дисс.. –Самарқанд. 2019. -Б.28.
3. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги тадрижи. Ўқув-услубий қўлланма. –Т: “ФАН”. 2012. -Б.8.
4. Қозихўжаев А. Қисса жанри хусусида. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. – Т., ФАН. 2012. –Б. 206.
5. Адабий тур ва жанрлар(тарихи ва назариясига оид) 3-жилдлик. 1-жилд. –Т. “ФАН”. 1991. –Б.152.
6. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/lev-tolstoy/lev-tolstoy-iblis-qissa/>
7. Қўшжонов М. Танланган асарлар. –Т.: “Шарқ”. 2019. –Б.412.